

**DAVLAT MOLİYASINI BOSHQARISH ISLOHOTINI
TAKOMILLASHTIRISH***Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti**Mt-91 guruh talabasi**Qahramonova Xusnora*

ANNOTATSIYA: Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishning asosiy yoʻnalishlaridan biri – mamlakatda davlat budjeti gʻazna ijrosi mexanizmini joriy qilishdan iborat. “Davlat budjetining gʻazna ijrosi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi davlat mablagʻlarini taqsimlash va ulardan foydalanishni tartibga solishda navbatdagi muhim qadam boʻldi. Gʻaznachilikni joriy etish budjetning daromadlar qismida tushumlarning toʻliq va oʻz vaqtida tushishini va xarajatlar qismida budjet mablagʻlarining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini berdi.

KALIT SOʻZLAR: Davlat moliyasi, Maʼmuriy islohot, Samarali texnologiya, Budjetni ijro etish, Budjetning mustaqilligi, Fuqarolik xartiyalari.

Maʼmuriy islohot va davlat xizmati islohotini samarali amalga oshirish islohotlar jarayoni bilan bir vaqtda davlat organlari faoliyatining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunday takomillashtirishning bosh maqsadlari, birinchidan, samaradorlik yoki unumdorlikni oshirish, yaʼni davlat organlarining funksiyalarini bajarishga xarajatlarni qisqartirish, davlat xizmatlarining sifatini saqlab qolgan yoki yanada yaxshilagan holda ularni arzonlashtirish, ikkinchidan, davlat xizmatida faoliyatni doimiy yaxshilashning ichki ragʻbatlarini yaratish, shu jumladan, tashkiliy jihatdan rivojlanish hamda ish texnologiyalarini optimallashtirishdir. Maʼmuriy islohot doirasida qoʻllanilgan yangi iqtisodiy mexanizm unga lozim darajada faol tus berish va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yoʻnaltirish, uning oʻzini-oʻzi rivojlantirishini taʼminlashga qodir.

Hozirgi vaqtda Oʻzbekistonda Davlat moliyasini boshqarish islohotining 2007-2018 yillarga moʻljallangan strategiyasi qabul qilingan va uni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan davlat dasturi tayyorlanmoqda, maʼmuriy islohot yoʻnalishlari aniqlanmoqda. Mazkur islohot, agar u davlat organlari faoliyatini boshqarish, rejalashtirish, budjetlashtirish va mazkur faoliyatga baho berish islohotlari, yaʼni davlat boshqaruvi iqtisodiy mexanizmini isloh qilish bilan birga amalga oshirilsa, yanada samaraliroq boʻladi.

Maʼmuriy islohot va davlat xizmati islohotini iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash, budjetlashtirishning samarali modelini amalga joriy etish uchun yaqin kelajakda vazifalar majmuini echish talab etiladi. Chunonchi, budjet loyihasini tayyorlash

texnologiyasini o'zgartirish lozim. U ayrim idoralarning smetalarini hisoblashdan emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar tahlili, milliy miqyosdagi ustuvor vazifalarni belgilash, shu asosda dasturlar va funktsiyalar bo'yicha budjetdan ajratiladigan mablag'larning uzoq muddatli limitlarini aniqlashdan boshlanishi lozim.

Samarali texnologiya quyidagicha bo'lishi mumkin. Hukumat budjet mablag'larining asosiy tasarrufchilari sanalgan davlat organlarining har biriga budjetdan ajratiladigan mablag'larning limitlarini (eng ma'quli – 2-3 yilga) belgilaydi. Bu organlar o'z oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan kelib chiqib olingan limitlarni o'ziga bo'ysunuvchi budjet oluvchilar o'rtasida, shuningdek, o'z budjetini tashkilot bo'linmalari (boshqarmalar, departamentlar) o'rtasida taqsimlaydi. Bo'linmalar budjetdan ajratilgan mablag'larni quyi turuvchi bo'g'inlar (bo'limlar) o'rtasida taqsimlaydilar.

Tarkibiy bo'g'inlarning har biri olish kutilayotgan mablag'larning limitlariga muvofiq o'z ish rejasining variantlarini tuza boshlaydi. Bunda ular asosiy e'tiborni pirovard natijalarni asoslashga, faoliyat unumdorligini oshirishga, mablag'larni tejash imkoniyatlariga qaratadilar. Rejalar pastdan yuqoriga bir necha variantlarda taqdim etilishi mumkin. Masalan, budjetdan ajratiladigan mablag'larning limitlariga muvofiq keluvchi reja va ko'proq mablag'larni talab etuvchi, lekin pirovard natijalar hamda unumdorlik sezilarli darajada oshishini ta'minlovchi reja.

Tobe bo'linmalarning "reja to'plamlari"ni rahbariyat tomonidan tashkilotning eng muhim vazifalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish budjetlashtirishning navbatdagi bosqichida budjetdan ajratilgan mablag'larning limitlarini qayta taqsimlash imkoniyatini beradi. Bu budjet jarayoni darajalarining har birida budjet loyihasini tayyorlash chog'ida yuz berishi mumkin.

Jahon miqyosidagi muhim vazifalarga muvofiq keluvchi aniq va samarali faoliyat dasturlari yo'qligi ayrim idoralarni, ularning doirasida esa – ayrim bo'linmalarni moliyalashtirishni qisqartirish shartiga aylanishi lozim.

Ayrim idoralar uchun budjetdan ajratiladigan mablag'larning limitlari bilan bir qatorda ular faoliyatining unumdorlik ko'rsatkichlari belgilanishi lozim. Bunday ko'rsatkichlarni tanlashda ular muayyan idora ishiga amalda bog'liq va uning nazorati ostida ekanligiga ishonch hosil qilish kerak. Unumdorlik ko'rsatkichlari verifikatsiyalanuvchan bo'lishi, ya'ni statistik hisobotga kirishi yoxud qonun yo'li bilan yoki normativ belgilangan boshqa taomillarga muvofiq aniqlanishi lozim.

Bu ko'rsatkichlar ham hukumatning navbatdagi budjet davriga mo'ljallangan majburiyatlari bilan bog'lanishi va ularni muayyanlashtirishi lozim. Moliyaviy majburiyatlar bilan bir qatorda, unumdorlik ko'rsatkichlari budjet hujjatlarida normativ-huquqiy mustahkamlanishi va budjet bilan bog'lanishi lozim.

Masalan, Buyuk Britaniyada natijalarning ko'rsatkichlari, davlat xizmatlari hajmi va sifati standartlari Fuqarolik xartiyalarida belgilanadi. Hukumat organlari va

muassasalari ularda fuqarolarga ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarning muayyan darajasini, tanlash va raqobat imkoniyatini, davlat xarajatlar dasturlarining oshkoraligi va ijtimoiy samaradorligini ta'minlash majburiyatini oladilar. Majburiyatlardan tashqari xartiyalarda standartlarga rioya qilinmagan holda jarima sanksiyalari va mijozlarga tovon to'lash belgilanadi.

Shvetsiyada natijalarning ko'rsatkichlari va ayrim davlat organlarining budjetlari tartibga solish xatlari shaklida tasdiqlanadi. Xatlarda qayd etiladigan natijalarning ko'rsatkichlari Vazirlar Mahkamasi a'zolarining ayrim milliy xizmatlar va idoralarning rahbarlari bilan muloqoti jarayonida budjetdan ajratiladigan mablag'lar rejalarini tayyorlash bilan bir vaqtda shakllantiriladi.

Navbatdagi 2-3 yilga belgilanadigan budjetdan ajratiladigan mablag'larning uzoq muddatli limitlari (balki budjetning ayrim yaxlitlangan limitlari) va unumdorlikning belgilangan indikatorlari doirasida davlat organlarining rejali, moliyaviy va operatsion mustaqilligi kengaytirilishi, bu moliyaviy faoliyat amalda markazlashtirishdan chiqarilishini va davlat boshqaruvi quyi bo'g'inlarining javobgarligi kuchaytirilishini anglatishi lozim.

Davlat organlarining rejaları to'laligicha ular uchun belgilangan natijalarga erishishga, budjetlarni ishlab chiqish esa vujudga kelgan tashkiliy tuzilmaga emas, balki muayyan funktsiyalar, xizmatlar va faoliyat turlarini ta'minlashga qaratilishi lozim. Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlar hisob-kitobi (activity-based costing) va faoliyat turlari bo'yicha boshqaruv (activity-based management) kabi yangi instrumentlarni qo'llash keraksiz va iqtisodiy jihatdan samarasiz vazifalarni aniqlash, demak, faoliyatning samaradorlik darajasini oshirish imkoniyatini beradi. Ulardan foydalanishdan mutlaqo kutilmagan samaraga erishilishi mumkin. Masalan, o'tgan asrning 90-yillari oxirida Melburn shahrining pochta xizmatini ta'minlash xarajatlarini tahlil qilishda umumiy xarajatlarning 92 foizini mijozlarning ehtiyojlari bilan umuman bog'liq bo'lmagan jarayonlarni tashkillashtirish xarajatlari tashkil etgani aniqlangan.

Budjetni ijro etishda davlat organlari xarajatlar tuzilmasini tezkorlik bilan o'zgartirish, tejab qolingan mablag'larni kelgusi budjet yiliga o'tkazish, shuningdek, kelasi yil budjeti mablag'larining bir qismidan qarz shartlarida foydalanish huquqiga ega bo'lishlari lozim. Budjetning immuniteti va mustaqilligi mablag'larni tejashga rag'batlantiradi, o'rta muddatli dasturlarni bajarishning uzluksizligini ta'minlaydi. Budjetning mustaqilligi xarajatlarni o'z vaqtida va kompleks amalga oshirish omili hisoblanadi.

Ayrim hollarda idoralarning budjetga oid vakolatlari cheklanishi lozim. Bu, masalan, subsidiar javobgarlik muammosi, ya'ni davlat organlari moliyaviy oqibatlarini davlat budjetiga ta'sir ko'rsatadigan qarorlar qabul qilishi va majburiyatlar olishi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytishim mumkinki: Davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar kelgusida pulli tus olishi (ya'ni "xo'jalik hisobi"ga o'tkazilishi), hech bo'lmasa, qisman xarajatlarni qoplash printsipiga asoslanishi lozim. Ayni holda, gap ichki xizmatlarga narxlarni belgilash va balansida o'zaro xizmatlar saldosini aks ettiriladigan maxsus hisob-kitob hisobvaraqlarini joriy etish haqida borishi mumkin. Birinchi bosqichda bunday transfert narxlari va hisobvaraqlari shartli bo'lishi, ya'ni amalda pulli hisob-kitoblarni nazarda tutmasligi mumkin. Keyinchalik ular maxsus zaxira fondlaridan ta'minlanishi mumkin. Bu moliyaviy instrumentlar o'zaro xizmatlar oqimlarining manzarasini gavdalantirish, idoralarning oqilona ixtisoslashuvi yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Davlat organining bo'linmasi boshqa organlarga ko'rsatadigan ichki xizmatlar hajmining kattaligi mazkur bo'linmaga mustaqil yuridik shaxs maqomini berish uchun asos bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlarining g'azna ijrosi Qoidalari" O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016-yil 22-noyabrda 88-son buyrug'iga O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami №2580
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalgam oshirishga tayyorlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 144-son Qarori 26.04.2002.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 104 b.
4. T.S.Malikov, O.O.Olimjonov. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod Moliya" 2019. – 800 b.
5. www.lex.uz (O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti);
6. www.publicfinance.uz